

**IMOM AL-BUXORIY YODGORLIK MAJMUASINING ZIYORAT  
TURIZMIDA TUTGAN O`RNI**

*Abdullayeva Zulayxo Aziz qizi  
Qarshi davlat universiteti tarix yo`nalishi 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hadis ilmining sultonni Imom al-Buxoriyning hayot faoliyatlari va u kishining xotirasiga atab bunyod etilgan yodgorlik majmuasi haqida, ushbu ziyyaratgohning Samarqand viloyati turizm sohasining rivojljanishida tutgan o`rni haqida atroflicha fikr yuritilgan.

**Kalit so`zlar :**Imom al-Buxoriy , “At-tarix al-kabir “, “Al Jomi’ as Sahih “, Kitob akuna “ ( “ Kunyalar haqida kitob “) “ At Ta’rix alkabiyr “ ( “Katta tarix “), Kitob alfavoid” (“ Foydali ashyolar haqida kitob “ ), “Al Jomi’ alkabiyr” (“ Katta tayanch “), “ Xalq af’ol alibod” ( “Alloh bandalari ishlarining tabiat “), “AlMusnad alkabiyr” ( “ Katta tafsir” ), “ Attafsir alkabiyr “ ( “ Katta tafsir “), “Kitob alxiba”.

Samarqand-jahonning eng qadimiy shaharlaridan biri, Rim, Afina, Vavilonlarning tengdoshi hisoblanadi. Samarqand 2750 yillik tarixga ega shahar. Shahar qanchadan qancha istilolarni ko`rdi, ammo o`z qiyofasini shu kungacha yo`qotmasdan saqlab keldi. Hududda 1105 ta arxeologik , 670 ta me’moriy, 37 ta diqqatga sazovor joy, 18 ta monumental, 21 ta memorial toifaga kiruvchi jami 1851 ta moddiy-madaniy meros ob’ektlari bor.

Ushbu yodgorliklar orasida Samarqand shahrida joylashgan Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasi, tarixiy hamda ziyyarat turizmini rivojlantirishda asosiy o`rinni egallaydi.Ushbu yodgorlik O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 29-apreldagi “Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo`yicha 1225-yilligini nishonlash to`g’risida” gi qarori asosida barpo etilgan.“Hadis ilmida amir al-mo’miniyn” degan sharafli nomga sazovor bo`lgan Imom al-Buxoriy islam olamida alohida o`ringa ega bo`gan buyuk hadisshunos alloma hisoblanadi. Uning to`liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug’iyra ibn Bardazbeh al-Juafiy al-Buxoriy bo`lib, u hijriy hisobda 194-yil shavvol oyining 13-kuni (810-yil 20-iyul)da Buxoro shahrida tavallud topgan . Imom al-Buxoriyning otasi Ismoil bo`lib o`z davrining yetuk muhaddislaridan sanalib, Imom Molikning shogirdi va ashoblaridan biri bo`lib, tijorat ishlari bilan ham shug’ullangan. Imom al-Buxoriy “At-tarix al-kabir” ( “ Katta tarix “) asarida otasining tarjimayi holi haqida talay ma’lumotlar keltiradi. Manbalarda zikr qilinishicha, alloma Ismoil o’ta taqvodor, xudojo`y, halol bir inson bo`lgan.


Imom al-Buxoriyning onasi ham taqvodor, diyonatli va har xil karomatlar sohibasi, g’oyatda oqila, fozila ayol bo`lgan. U el orasida Alloh taologa iltijo etib,

doimo duolar o`qib yuradigan pokiza ayol sifatida tanilgan edi. Ma'lumki Imam al-Buxoriy yoshligida ko`zi jarohatlanib, ko`rish qobilyati susaygan bo`lib, har qancha urinsa ham tabiblar uni davolay olmaganlar. Kunlardan bir kuni al-Buxoriyning onasi tushida Ibrohim (s.a.v)ni ko`rganda u zoti sharif bu mushfiqa onaga qarab: “Ey, volida! Sening duolaring bardavomligidan Alloh taolo o`g’lingga to’liq ko’rish qobilyatini qaytardi”, - deb xitob qilganlar. Keyin u: “ Uyqimdan uyg’onsam, o`g’lim Muhammadning ko`z nuri to’liq qaytib, tuzalib ketibdi”, - degan rivoyat mavjuddir<sup>1</sup>. Imam al –Buxoriy yoshligidayoq otasi vafot etib, uning tarbiyasi faqat validasi kafalotida bo’lgan. Birmuncha ulg’ayib aqli raso bo`lgach, uning qalbida islomiy ilmlarga, ayniqsa, Payg’ambar alayhissalomning muborak hadislarini o’rganishga va yodlashga moyillik tobora kuchayib borib, u dastavval Ibn al-Muborak va Va’kiyning hadislariga oid asarlarini yod oladi. Manbalarda keltirilishicha, al-Buxoriyga o`n yoshidan boshlab hadislarni yod olish ilhami nasib etib, yoshi ulg’aygan sari bu rag’bati tobora kuchayib ziyoda bo`lib brogan, u nafaqat hadislarni shunchaki yod olish, balki unda yoshligidan boshlab hadislarni sahih (to’ri, ishonchli) va g’ayri sahihlarga (xato, noto`g’ri) ajratish, ularning illatlarini aniqlash, hadis rivoyatlarini o’rganib tahqiq qilish, ular rivoyatiningadolatliligi, to`g’riliqi, ishonchi yoki ishonchsizligi, hadis ilmining xilma-xil va eng yuqori nuqtalriga yetishish, ularni jamlash va Qur’oni karim oyatlari bilan uzviy bog’liqlikda o’rganish kabi masalalar bilan qiziqdi<sup>2</sup>. Imam al –Buxoriy g’oyatda beg’ubor, halol-pokiza, diyonatli inson bo`lib, g’iybat-u nohaqliklardan uzoq bir kishi edi. U doimo “G’iybat qilishlik harom ekanligini bilganimdan boshlab, hech qachon biror kishi haqida g’iybat gapirmaganman”, - deb ta’kidlardi. Buxoriy 20 dan ortiq kitob tasnif etgan. Ulardan ayrimlari bizgacha yetib kelgan. Buxoriyning “Al Jomi’ as sahih” ( “ Ishonchli to’plam” ) deb nomlangan 4 jild ( juz )dan iborat hadislar to’plami islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan hadis to`plamlari orasida eng ishonarli va mukaammaldir. Asar bir qancha xorijiy tillarga tarjima qilingan. Shu jumladan o`zbek tiliga tarjima qilinib, 1991-96-yillarda 4 jildda nashr etildi. Buxoriy yaratgan “ Al Adab al-Mufrad ” ( “ Adab durdonalari ”) asari katta tarbiyaviy ahamiyatga molik Benazir asardir. 1322 hadis va xabar jamlangan bu asar Turkiya va Misrda bir necha marta chop etilgan. Uning o`zbekcha tarjimasi 1990-yilda Toshkentda nashr qilingan. Roviyarning kunyalariga bag’ishlangan “ Kitob akuna ” ( “ Kunyalar haqida kitob ”) 1940-yilda Hindistonda chop etilgan. Buxoriyning “ At Ta’rix alkabiyr ” ( “ Katta tarix ”) kitobi esa Turkiyada 9 jildda nashr qilingan. Asar qo’lyozmasining ba’zi qosmlari Haydarobod kutubxonasida saqlanadi. Buxoriy yaratgan “ Kitob alfavoid ” ( “ Foydali ashyolar haqida kitob ” ), “ Al Jomi’ alkabiyr ” ( “ Katta tayanch ” ), “ Xalq af’ol alibod ” ( “ Alloh bandalari ishlarining tabiat ” ), “ AlMusnad alkabiyr ” ( “ Katta tafsir ” ), “

<sup>1</sup> U.Uvvatov. “O’zbekiston buyuk allomalar yurti” ., T.2020 . (10-12-13-betlar)

<sup>2</sup> B.Namozov.”Sharq allomalarining ilmiy-ma’naviy merosi” .O’quv qo’llanma. “Durdon nashriyoti” ., Buxoro-2022

Attafsir alkabiyr “( “ Katta tafsir “), “Kitob alxiba” ( “ Xayrehson haqida kitob “ ) va boshqa asarlarining ba’zilari bizgacha yetib kelmagan, ba’zilari jahonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotgani haqida ma’lumotlar bor. (8) Imom al-Buxoriyning “ Al- Jomi’ as-Sahih “ ( Ishonarli to’plam ) asari haqida so`z ketganda shuni aytish mumkinki, mazkur manba islom dini ta’limotida Qur’oni karimdan keying asosiy manba sifatida foydalilaniladi. Imom al- Buxoriy “ Al-Jomi’ as-Sahih” kitobini 16 yilda yozib tugatib, unga 7275 tan ortiq sahih hadislarni boblarga ajratib tartibli ravishda jamladi. Imom Buxoriyning vafoti hijriy 256(milodiy 870) yil ramazon oyi kechasi, xufton namozidan keyin bo`ldi.



Imom al-Buxoriy yodgorlik majmui- Samarqanddagi me’moriy yodgorlik, ziyoratgoh. Imom al-Buxoriy dafn etilgan Chelak tumani Hartang qishlog’idagi qabriston musulmon axlining eng tabarruk va aziz ziyoratgohlaridan bo`lib kelgan. XXVI asrda Imom al-Buxoriy qabri ustiga kichkinagina maqbara, yoniga masjid qurilib, hovlisiga bir necha tup chinor ekilgan. Lekin sho`ro tuzimi davridagi dahriylik siyosati tufayli bu maskan qarovsiz ahvolga tushib qolgan. O`zbekiston mustaqillikka erishganidan so`ng Imom al-Buxoriy kabi butun umrini iymon va e’tiqod, ilm-ma’rifat, diyonat yo`lida baxshida etgan ulug’ zotlar xotiralarini e’zozlash, ular nomlari bilan bog’liq joylarni obodonlashtirishga alohida e’tibor berila boshlandi. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamzsining 1997-yil 29-apreldagi qarori asosida allomaning maqbarasi o`rnida maxsus yodgorlik majmui barpo etildi. Bu yodgorlik majmui O`zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov rahbarligida yaratilgan loyiha asosida Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Andijon, Namangan,

Qo`qon, Shahrisabz xalq ustalari tomonidan 1998-yilda qurildi. Imom al-Buxoriy majmuasi maqbara, jom'e masjid, muzey, ayvonlar, favvoralar va hovuz joylashgan hovlidan tashkil topgan. Ziyoratgohga kirish darvozasi milliy yog'och o`ymakorligi san'ati durdonasi bo`lib uning peshtoqiga kufiy hamda suls xatida Qur`oni karim oyatlari bitilgan. Imom al-Buxoriy maqbarasi murabba shaklida milliy arxitekrura an`analariga xos tarzda qurilgan. O`lchami 9x9 metr, balandligi 17,6 metrga teng. Eksteryeri Erondan keltirilgan oneks toshi bilan bezatilgan binoga Qur`oni karim oyatlari va hadislar yozilgan koshinlar takrorlanmas husn bag'ishlaydi. Maqbara interyeri ham naqshlar bilan ziynatlangan bo`lib, bu yerda ham oyat-u hadislar bitilgan. Ulug' alloma qabr toshining bosh tomoniga "Har bir nafs o`limni topguchidir" deb yozilgan. Oyoq tomonida "Boqiylik yolg'iz Allohga xosdir" degan yozuv. Chap qo'l tomonida "Alloh xursand qiladi bir kishi, u bizdan biron narsa eshitgan bo`lsa, shu holatda yetkazgan bo`lsa, ko`p yetkazilgan kishilar eshitgandan ko`ra saqlaguvchiroqdir" degan bitikni ko`rasiz. O`ng qo'l tomoniga Hashr sur`asining 7-oyati va "Payg`ambar o`zi sizga ato etgan narsani olinglar, u zot sizlarni qaytargan narsadan qaytinglar va Allohdan qo`rqinglar, albatta Allohning jazosi qattiqdir" deb yozilgan. Majmua masjidiga kiraverishdagi katta ravoqning ustki qismiga kufiy xatida Ixlos surasi, suls yozuvida Mo`minun surasining birinchidan to`rtinchiga qadar oyatlari bitilgan. Masjid ichki hovlining chap tomonida, maydoni 786 kv.km. Ayvonlarning umumiyligi maydoni 214 kv.km. Masjidda bir vaqtning o`zida 1500 kishi namoz o`qishi mumkin. Masjidga uch eshik orqali kirilib, ularga ham Qur`oni karim oyatlari yozilgan. Shuningdek, majmua hovlisidagi 5 ta chinor daraxti va ularning tagidagi hovuz ham qiziq tarixga ega. Bu daraxtlar XVI asrda Buxoro xoni Abdullaxon tomonidan ekilgan. Hozirda chinorlar salkam 600 yoshda ekanligi mutaxasislar tomonidan ta'kidlanmoqda. Majmuada joylashgan muzey tarixi ham alohida ahamiyatga ega. Mamlakatimizning birinchi Prezidenti tashabbusi bilan obod etilgan ziyoratgohdagi muzeyda eng asl, tengsiz mo`jiza bo`lmish Qur`oni karimning turli davlat rahbarlari hamda hukumat rahbarlari tomonidan sovg`a qilingan bir necha nusxalari saqlanmoqda. U yerdagi tengsiz mo`jizalar orasida yana bir nodir me`ros bor. Birinchi Prezidentimizga Makkayi Mukarramada Saudiya Arabiston qiroli Fahd ibn Abdulaziz tomonidan sovg`a qilingan kisva- Ka`ba qoplamasini hisoblanadi. Imom al-Buxoriy majmuasi yaqinidan, O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov 2008-yil, 23-maydagi qaroriga asosan barpo etilgan Imom al-Buxoriy Xalqaro markazi joylashgan. Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasi, yurtimizda oxirgi vaqtarda barpo etilgan shu turdagini inshootlarning eng katta va noyoblaridan biri hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 14-15-aprel kunlari Samarqand viloyatiga tashrifi davomida Imom Buxoriy majmuasi hududida xalqaro tajribani o`rgangan holda xalqaro ilmiy markaz qurilishi bo`yicha

topshiriq berilgan edi. Shu munosabat bilan majmuaga tutash hududdan 5,8 hektar yer maydoni ochilib, ilmiy markaz qarshisida 3ta uch qavatlari turar jopy qurilishi uchun ajratib berildi. Prezidentimizning 17-18- mart kunlari Samarqand viloyatiga tashrifi davomida bergen topshirig`i bilan Imom Buxoriy majmuasi qayta qurish loyiha-taklifi va Xartang qishlog`ining bosh reja-loyihasi ma`qullandi. Xalqaro ilmiy markaz qurilishining umumiy loyiha qiymati 122 mlrd. So`mni tashkil etib, bugungi kunda qurilish ishlari tuggalanish arafasida.

Xulosa o`rnida aytish lozimgi Samarqand shahrida joylashgan Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi nafaqat viloyat turizmida balki, vatanimiz turizmida ham o`zining alohida o`niga egan yodgorlik hisoblanadi. “Imom al-Buxoriyning mo`tabar hokini ziyorat qilish sharafiga muyassar bo`lgann mo`min-musulmonlar tom ma`noda baxtiyordirlar” degan edi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov. Bu mo`tabar maskanning butun dunyo musulmonlarining muqaddas ziyoratgohiga aylanishi buyuk muhaddis Imom al-Buxoriya bo`lgan yuksak ehtirom namunasi desak adashmagan bo`lamiz.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Samarqand viloyati madaniy meros obyektlari ro`yxati .
2. O`zMe. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
3. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Toshkent sh,1997-yil 29-aprel, 217-soni.
4. “Ma`naviyat yulduzlari” “Abdulla Qodiriy “ Xalq merosi nashriyoti , T-1999.
5. U.Uvvatov. “O`zbekiston buyuk allomalar yurti” ., T.2020 . (10-12-13-betlar)
6. B.Namozov.”Sharq allomalarining ilmiy-ma`naviy merosi” .O`quv qo`llanma. “Durdona nashriyoti” ., Buxoro-2022.
7. “Al-adab,al-mufrat” Imom al-Buxoriy .
8. “Xalq so`zi “ gazetasi .2018-yil 18-iyun.
9. O. Muhammad . “ Rabboniy ulamolar “ .”Imom Buxoriy xalqaro ilmiy – tadqiqot markazi “nashriyoti . Samarqand -2020.
10. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo`yicha qo`mitasining 6864-sonli xulosasi asosidaa tayyorlangan videorolik.